



## ZUBTURUM (PLANTAGO SPP.) O‘SIMLIGINING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI

Usmonjonova Ozoda Komiljon qizi – 3kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zubtutum (*Plantago major* L. va *Plantago lanceolata* L.) o‘simligining biologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, dorivor va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati tahlil qilindi. O‘simlikning xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda keng qo‘llanilishi, shuningdek ekologik va oziq-ovqat sohalaridagi roli yoritildi.

**Kalit so‘zlar:** zubtutum, *Plantago*, biologik faol moddalar, dorivor o‘simlik, farmatsevtika, xalq tabobati.

**Аннотация.** В статье анализируются биологические свойства, химический состав, лекарственное и хозяйственное значение растения зубтutum (*Plantago major* L. и *Plantago lanceolata* L.). Отмечено широкое применение растения в народной и современной медицине, а также его роль в природоохранной и пищевой сферах.

**Ключевые слова:** зубтutum, подорожник, биологически активные вещества, лекарственное растение, фармацевтика, народная медицина

**Abstract.** This article analyzes the biological properties, chemical composition, medicinal and economic significance of the plant Zubtutum (*Plantago major* L. and *Plantago lanceolata* L.). The widespread use of the plant in folk medicine and modern medicine, as well as its role in the environmental and food sectors, are highlighted.

**Keywords:** Zubtutum, *Plantago*, biologically active substances, medicinal plant, pharmaceuticals, folk medicine.

**Kirish.** O‘zbekiston florasi dorivor o‘simliklarga boy bo‘lib, ulardan biri zubtutum (*Plantago* spp.) hisoblanadi. Ushbu o‘simlik qadimdan xalq tabobatida qo‘llanib kelinadi va bugungi kunda farmatsevtika sanoatida ham muhim o‘rin tutadi.



Zubturmning barglari, urugʻlari va ildizi biologik faol moddalarga boy boʻlib, turli kasalliklarni davolashda samarali vosita sifatida ishlatiladi.

**Materiallar va usullar.** Maqolani tayyorlashda Oʻzbekiston hududida uchraydigan zubturm turlariga oid ilmiy adabiyotlar, fitoterapiya manbalari hamda xalq tabobati tajribalari tahlil qilindi. Oʻsimlik tarkibidagi kimyoviy moddalar haqidagi maʼlumotlar farmakognoziya adabiyotlari asosida keltirildi.

**Natijalar va muhokama.** Zubturm koʻp yillik oʻt oʻsimligi boʻlib, yoʻl boʻylarida, dala chetlarida, nam yerlarda oʻsadi. Barglari oddiy, yirik yoki lansetsimon shaklda, poyasi esa sershox boʻladi. Mayda gullari boshhoqsimon toʻpgulga yigʻilgan boʻlib, changlanishi asosan hasharotlar yordamida sodir boʻladi. Zubturmning kimyoviy tarkibi: flavonoidlar, glikozidlar (aukubin, plantamtozid), organik kislotalar (limon, olma, ursol), polisaxaridlar va pektinlar, vitaminlar (A, C, K), tanin moddalardir. Dorivor ahamiyati shundan iboratki, barg sharbatidan qon toʻxtatuvchi, yalligʻlanishga qarshi va yaralarni bitiruvchi vosita sifatida foydalaniladi. Masalan, damlamasi bronxit, yoʻtal, tomoq shamollashida balgʻam koʻchiruvchi xususiyatga ega. Shuningdek, oshqozon-ichak kasalliklarida, gastrit va yara davolashda qoʻllaniladi.



*1-rasm. Plantago lanceolata*

Urugʻlari esa ichak faoliyatini meʼyorga soluvchi, yumshatuvchi vosita sifatida tavsiya qilinadi. Xalq tabobatida yangi barglari yara va yalligʻlangan joylarga qoʻyilib, chaqishi yoki qon ketishini toʻxtatishda ishlatiladi. Zubturm yana tez oʻsuvchi va





tuproqni mustahkamlovchi o'simlikdir. Asalarilar uchun muhim nektar manbai hisoblanadi. Yosh barglari salat va choy sifatida oziq-ovqatda qo'llaniladi.



*2-rasm. Plantago major L*

**Xulosa.** Zubtutum (*Plantago* spp.) O'zbekiston florasida keng tarqalgan va ko'p qirrali ahamiyatga ega o'simlik hisoblanadi. Uning dorivor xususiyatlari farmatsevtika sanoatida, xalq tabobatida va zamonaviy tibbiyotda keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, ekologik jihatdan muhim bo'lib, tuproq unumdorligini saqlash va hasharotlar uchun nektar manbai vazifasini bajaradi.

#### Adabiyotlar:

1. Ahmedov O'., Ergashev A., Abzalov A., Yulchiyeva M., Mustafakulov D. Dorivor o'simliklarm yetishtirish texnologiyasi va ekologiya / darslik. Toshkent: «Tafakkur bo'stoni», 2018. - 224 b.
2. Ayupov H.R. Dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish. 3-kitob T. 2015
3. Холматов Х.Х., Ахмедов У.А. Фармакогнозия -1қисм. -Тошкент: Фан, Дарслик 2007-408 бет.
4. Холматов Х.Х., Ахмедов У.А. Фармакогнозия -2қисм.-Тошкент: Фан, Дарслик 2007-400 бет.

